SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-son (6-jild)

2026

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V6I4Y2026

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

***№ 4 (6) – 2026***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**TOSHKENT-2026**

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY'ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo oʻgʻli – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar boʻlimi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod Oʻktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b,;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent,;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD).

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Joʻraboy – falsafa fanlari doktori, professor;

Gʻaybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Moʻmin – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Oʻroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Koʻchimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov Gʻaybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Togʻayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G‘aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo‘rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o‘g‘li — yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);

Sulaymanova Dildora Nazarovna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
6-jild, 4-son (aprel, 2026). - 368 bet.

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Махмудова Нигора Баротовна*
ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПЕНИТЕНЦИРНОГО ДЕЛА В КОЛОНИАЛЬНОМ ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ, ПО ОТЧЁТАМ РЕВИЗИИ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА ..................... 10-15

*Esonov Ziyodbek Yuldashevich*
RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI VA UNING LOKAL XUSUSIYATLARI ETNOGRAFIK TAHLILI ..................... 16-20

*Абдиев Рузикул Буронович*
ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОХРАНЕНИЯ АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ ..................... 21-27

*Абдужаббаров Шерзод*
ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ФУНКЦИИ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СУЩЕСТВОВАНИЯ И РАБОТЫ СОВЕТА ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРА ..................... 28-33

*Boymurodov Shuxrat Toshkentovich*
MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘RTA MAXSUS TA’LIM, SOHASIDA MA’NAVIY YANGILANISH ..................... 34-38

*Жураева Нафиса Олимовна*
ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КУЛЬТОВЫХ СООРУЖЕНИЯХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГУЗАРОВ ГОРОДА БУХАРЫ ..................... 39-45

*Safarov Akmal*
SUV XO‘JALIGI SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ..................... 46-52

*Tursunova Mahliyo Sarvar qizi*
XORIJIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING HUDUDIY IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTGA TA’SIRI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA, 1991- 2026 -YILLAR) ..................... 53-57

*Mardiyeva Guzal Karimovna*
SAMARQAND VILOYATIDA SOVET DAVRINING DASTLABKI YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING OLIY TA’LIMGA KIRISH IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLAR ..................... 58-62

*Kenjayev Elyor Sattorovich*
YANGI O‘ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA STRATEGIK ISLOHOTLAR: TARAQQIYOT VA MA’NAVIY YUKSALISH UYG‘UNLIGI ..................... 63-70

*Polvonov Kozimbek Naimovich, Polvonov Anvar Naimovich*
QASHQADARYODAGI YETAKCHI O‘QUV DARGOHLARIDAN BIRI ..................... 71-79

*Mo‘minova Gavxar Esanovna*
O‘ZBEKISTON SAVDO TARIXINI O‘RGANISHDA DAVLAT ARXIVLARI HUJJATLARINING O‘RNI ..................... 80-85

*Norboyev Sarvar Qahramon o‘g‘li*
O‘ZBEKISTON TARIXIY SHAHARLARINING XALQARO MIQYOSDA TAN OLINISHI ..................... 86-90

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Tillabaeva Umida Makhsumovna, Talipova Nigora Tulkunovna*
DIGITALIZATION AND EMPLOYABILITY:
A BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF RESEARCH TRENDS (2018–2025) ........................................ 91-100

*Xudoyorov Lochinbek Bahromovich*
O'ZBEKISTON SERVIS SOHASIDA XIZMATLAR SIFATI KO'RSATKICHLARINING
DINAMIK TAHLILI ........................................................................................................ 101-107

*Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li*
INNOVATSION MARKETING INDEKSI ASOSIDA KORXONALARNING IQTISODIY
XAVFSIZLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI .................. 108-113

*Ismoilov Bekzod Muxidinovich*
GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION
RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI ........................................................ 114-118

*Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich*
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOIY-IQTISODIY
OQIBATLARI KELIB CHIQISHI ..................................................................................... 119-135

*Nishonova Shaxnozaxon*
ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIM SHAROITIDA LOYIHALARNI
BOSHQARISH YONDASHUVLARI .................................................................................. 136-140

*Fayziyeva Aziza Azamat qizi*
SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINING BANDLIK
KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI: ARIMA MODELI ASOSIDA PROGNOZ VA TAHLIL ........... 141-154

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

*Ismoilov Maxamadixon Isroilovich*
IQTISODIY RATSIONALIZM:
TUSHUNCHA, EVOLYUTSIYA VA NAZARIY CHEGARALAR ..................................................... 155-165

*Beshimov Xamidjon Sayidovich*
O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING IJTIMOIY ADOLATNI
TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI ......................................................................................... 166-175

*Obidov Asliddin Shavkatovich*
SAID AD-DIN AL-FARG'ONIY TA'LIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLAR ....... 176-181

*Abduraxmov Xasan Ibroximovich*
KOGNITIV-AXBOROT MUHITINING SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA YOSHLAR
IJODKORLIGI VA TASHABBUSKORLIGIGA TA'SIRI ............................................................ 182-188

*Xolova Umida Umedovna*
"O'RTA ASRLAR FALSAFIY TAFAKKURIDA MA'RIFAT KONSEPSIYASINING
TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: TEOLOGIK VA MA'RIFIY BOSQICHLAR TAHLILI" ...... 189-192

*Rajabova Rohila Zakirovna*
AHMAD DONISH'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN HIS WORK "NAVODIR UL-VAKOE" ........ 193-197

*Kabulov Jahongir Bakhodirovich*
SEPARATIZMNING ASIMMETRIK XUSUSIYATI ..................................................................... 198-202

*Eshkuvvatov Jaloliddin*
MADANIYATLARARO MULOQOTDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR SINTEZI .. 203-210

*Jomuradov Ikrom Ilxom o‘g‘li*
IMMANUIL KANT VA ZAMONAVIY FALSAFADA NOUMENAL ERKINLIK MUAMMOSI: FENOMENAL DETERMINIZM BILAN BOG‘LIQ ANTINOMIK ZIDDIYATNING DOLZARB TALQINLARI ........ 211-215

*Rustamova Madina*
OMMAVIY MANIPULYATSIYANING DESTRUKTIV XUSUSIYATI: TAHDIDLAR VA OQIBATLAR ........ 216-220

*Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich*
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOIY MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI ........ 221-225

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

*Isanova Feruza Tulqinovna*
O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINOLOGIYASINING GIBRID TABIATI: SHAKLLANISH MANBALARI, STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL TAHLILI ........ 226-232

*Rahmatov Laziz, Baxronova Dilrabo*
ABYA YALA (LOTIN AMERIKASI) DAVLATLARI NOMLARINING LINGVOPOLITIK DISKURSI: ETIMOLOGIK VA GEOSIYOSIY TAHLIL ........ 233-241

*Quvvatova Shaxlo Choriyevna*
XOLID HUSAYNIYNING “MING QUYOSH SHU’LASI” ASARI TAHLILI ........ 242-246

*Elmuratova Zamira Xodjamuratovna*
NAQLLAR VA MAQOLLARNING FOLKLOR JANRIDAGI ROLI ........ 247-251

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*Shayzakov Shodiyor Ibragimovich*
QONUNIY KUCHGA KIRMAGAN SUD HUJJATLARI USTIDAN APELLYATSIYA TARTIBIDA SHIKOYAT QILISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY ASOSLARI ........ 252-261

*Umarova Xolisxon Nomoz qizi*
O‘ZBEKISTONDA RAQOBATGA QARSHI KELISHUVLAR HAQIDA XABAR BERGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH VA JARIMALARNI KAMAYTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ........ 262-269

*Аминова Наргиза*
ОТ СЕКУЛЯРИЗМА К ПОСТСЕКУЛЯРНОСТИ: МОДЕЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РЕЛИГИОЗНОГО И СВЕТСКОГО В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ ........ 270-277

*Amirov Agzamxon Aktamovich*
QURILISHDA ULUSHLI ISHTIROK ETISH TUSHUNCHASINING TAHLILI ........ 278-283

*Mamatmurodov Farrux Farxod o‘g‘li*
SUKUKNING NAZARIY POYDEVORI HAMDA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI: ZAMONAVIY KAPITAL BOZORIDAGI O‘RNI ........ 284-294

*Kabilov Sardor Asrolovich*
JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH TURLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI ........ 295-300

*Nosirov Bekzod O'ktam o'g'li*
ETIL SPIRTI, ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINI BOJXONA CHEGARASIDAN NOQONUNIY OLIB O'TISH ........ 301-304

*Сабирова Куванчай Бабамуратовна*
ГЕНДЕРНОЕ НАСИЛИЕ, УСИЛЕННОЕ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ: ВЫЗОВЫ МЕЖДУНАРОДНОМУ ГУМАНИТАРНОМУ ПРАВУ И ПРОБЕЛЫ В ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ ........ 305-310

*Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna*
MEDIATSIYA INSTITUTIDA SUN'IY INTELLEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI ........ 311-318

*Majidov Islomjon Dilshod o'g'li*
YAQIN QARINDOSHLAR BILAN BOG'LIQ HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA INSONPARVARLIK PRINSIPINI QO'LLASH MASALALARI ........ 319-325

*Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li*
HUQUQ VA IMKONIYATLAR MUVOZANATI: O'ZBEKISTONDA GENDER ADOLAT SARI YO'L........ 326-331

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Qurbonova Dilafruz Toshturdiyevna*
TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINING TARIXIY, ILMIY-ADABIY MANBALARDAGI TALQININI TALABA-QIZLARGA O'RGATISH ........ 332-337

*Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li*
SUMMATIVE ASSESSMENT AS A CONTEXT FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE: THE PROBLEM DIMENSION ........ 338-344

*Abdullayeva Surayyo Ashrafxanovna*
AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR TA'LIMI VA TARBIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA IJTIMOIY ASOSLARI ........ 345-354

*G'affarova Dilfuza Shavkat qizi*
TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI........ 355-360

*Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich*
THE IMPACT OF VOLITIONAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE DEVELOPMENT OF BEHAVIORAL RESPONSES ENSURING EFFECTIVE SPORTS PERFORMANCE........ 361-367

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Issue 4 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 16 March 2026
**Accepted:** 01 April 2026
**Published:** 15 April 2026

*Article / Original Paper*

# ONE OF THE LEADING EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN KASHKADARYA

**Polvonov Kozimbek Naimovich,**
Karshi State University
Associate Professor of the Department of History of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD)

**Polvonov Anvar Naimovich**
University of Economics and Pedagogy
Master of the Department of History and Social Sciences

**Abstract.** This article discusses the history of the establishment and development of one of the leading educational institutions in Kashkadarya - the regional regional center for retraining and advanced training of pedagogical workers. In particular, the organization of the educational institution in the city of Karshi, Kashkadarya region, during the Soviet era, the changes and problems in its life, the status of activities, and the process of changes in the activities of the educational institution during the years of independence, the work carried out were analyzed based on scientific literature, information obtained through the "oral history" method, and archival sources.

**Keywords:** Soviet era, years of independence, Kashkadarya region, Karshi city, regional center for retraining and advanced training of pedagogical staff, training school, office, department, teacher, listener, processes.

# QASHQADARYODAGI YETAKCHI O‘QUV DARGOHLARIDAN BIRI

**Polvonov Kozimbek Naimovich,**
Qarshi davlat universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: kozimbekpolvonov6@gmail.com

**Polvonov Anvar Naimovich**
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi magistri

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Qashqadaryodagi yetakchi o‘quv dargohlaridan biri — viloyat pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazining tashkil topishi va rivojlanish tarixi haqida so‘z yuritiladi. Jumladan, Sovet davrida Qashqadaryo viloyati Qarshi shahrida ta’lim dargohining tashkil etilishi, uning hayotidagi o‘zgarishlar va muammolar, tadbirlarning holati hamda mustaqillik yillarida o‘quv dargohi faoliyatida yuz bergan o‘zgarishlar jarayoni, amalga oshirilgan ishlar ilmiy adabiyotlar, “og‘zaki tarix” uslubi orqali olingan ma’lumotlar va arxiv manbalari asosida tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Sovet davri, mustaqillik yillari, Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, viloyat pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi, o‘quv dargohi, kabinet, kafedra, o‘qituvchi, tinglovchi, jarayonlar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N11

**Kirish.** O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ta’lim tizimida erishilgan yutuqlarni yanada mustahkamlab, yangi pog‘onada rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Sog‘lom, bilimli,

teran fikrlaydigan, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash maqsadida ta'limning barcha turlari sifatini oshirishga harakat qilinmoqda. Jumladan, "pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimiga e'tibor qaratilib", "hududlardagi malaka oshirish markazlari faoliyati kengaytirilishi"[1] tizim salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

**Tadqiqot obyekti va qoʻllanilgan metodlar.** Qashqadaryo viloyat pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazining tashkil topishi va rivojlanish tarixi ilmiylik va tarixiylik tamoyiliga asoslangan holda tahlil etilgan. Shuningdek, xolislik, tizimlashtirish, "ogʻzaki tarix", statistik tahlil kabi ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Oʻzbekiston ta'lim tizimi uzoq oʻtmish tarixiga ega boʻlib, asrlar mobaynida oʻzgarishlar jarayonini boshdan kechirib kelmoqda. Tizim tarixi ijtimoiy-gumanitar soha olimlarining diqqat markazida turgan asosiy mavzulardan hisoblanadi hamda respublikaning vodiy va vohalari ta'lim tarixiga bagʻishlangan koʻpgina tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Qashqadaryo viloyatidagi ta'lim muassasalari tarixi tadqiqotlarda oʻz aksini topgan. Sovet davri nashrlari (Choriyev A., Ochilov M. Qashqadaryo oblasti. –Toshkent: Oʻqituvchi, 1974., Eshquvvatov O. Istoriya razvitiya sotsialisticheskix gorodov Karshi i Shaxrisabza (1925-1965 gg.). Avtoref. diss... . kand. ist. nauk. –T., 1970; Zaxarov S.M., Sobirjonov A. Qarshi. –T.: Oʻzbekiston, 1978; Zaxarov S.M., Hikmatov N. Shaxrisabz. –T.: Oʻzbekiston, 1979.) va mustaqillik yillarida amalga oshirilgan (Ergashev Q. Oʻzbekiston xalq ta'limining rivojlanish tarixi. –Toshkent: Oʻqituvchi, 1998., Joʻraqulov O. Qarshi davlat universiteti. –Toshkent: Fan, 1999., Polvonov K. Qashqadaryo vohasi shaharlari tarixi (1970-2021 yillar). –Toshkent: Tamaddun, 2022., Shadiyeva D.A. Qarshi davlat universiteti: tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari. Tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Qarshi, 2024., Toʻrayeva M. Qashqadaryoda an'anaviy ta'lim tizimi tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). – Toshkent: Firdavs – shoh, 2025.) tadqiqotlarda Oʻzbekiston, uning janubiy hududlaridagi oliy ta'lim, umumiy oʻrta ta'lim tizimi tarixiy aspektda yoritilgan. Ayrim ishlarda mavzuga oid ba'zi ma'lumotlar berilgan. Biroq, Qashqadaryo viloyat pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazining faoliyati tarixi alohida tadqiqot obyekti sifatida oʻrganilmagan.

**Muhokama.** Qashqadaryodagi yetakchi oʻquv maskanlaridan biri – viloyat xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish instituti 1952-yilda Qarshi shahrida tashkil topgan[2]. Institutning asosiy ish faoliyati oʻqituvchilarning bilim saviyasi va malakasini oshirishdan iborat boʻlib, institutda Xanifiy Sayfullin, Nabi Turdiyev, Abdulla Fattayev, Sattor Saidovlar[3] direktor lavozimida faoliyat koʻrsatgan. Ilm dargohi dastlab Qarshi shahridagi moslashtirilgan binolarda, jumladan, 1970-yillarning oʻrtalarigacha Charmgar mahallasidagi mehmonxonada, shundan keyin Beglar mahallasidagi koʻzi ojizlar internat-maktabida faoliyat olib borgan.

Oʻquv dargohi viloyat (oblast) oʻqituvchilar malakasini oshirish instituti maqomida yuritilib kelingan, 1985-yildan unga Qashqadaryo viloyat pedagogik xodimlar malakasini oshirish instituti maqomi berilgan. 1991-yilda oʻquv maskani shahardagi A.Navoiy mahallasidagi yangi qurilgan 625 oʻrinli binoda, Qarshi shahri, Olimlar koʻchasi 2-uyda faoliyatini davom ettirgan. Yangi binoni zarur oʻquv jihozlari bilan ta'minlanishida institut rahbari S.Saidovning xizmatlari katta boʻlgan.

1970-yillargacha boʻlgan davrda oʻqituvchilarni malaka oshirishiga eʼtibor kam boʻlib, ogʻir sharoitda domlalar ishlashgan. Xonalar yetishmasligidan Qarshi shahridagi baʼzi maktablar sinfxonalarida oʻqituvchilarning qisqa muddatli malaka oshirish kurslari tashkil etilgan[4]. Keyingi yillarda respublikada, jumladan Qashqadaryo viloyatida ham oʻqituvchilar miqdori koʻpayib borgani sayin malaka oshirish instituti oʻquv kurslariga keladigan pedagoglar soni ham ortib borgan.

Oʻquv dargohi viloyat rayon va shaharlaridagi xalq maorifi boʻlimlari bilan hamkorlikda ishlarni amalga oshirib kelgan. Xalq maorifi boʻlimlarida metodika xonalari tashkil etilgan boʻlib, ular orqali oʻqituvchi va maktab rahbarlari viloyat xalq taʼlimi xodimlari malakasini oshirish institutiga, K.D.Ushinskiy nomidagi respublika oʻqituvchilar malakasini oshirish va Samarqand davlat pedagogika instituti qoshidagi rahbar kadrlar tayyorlash institutlariga yuborilib turilgan.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** XX asrning 70-80-yillarida oʻquv dargohida ish kabinet tizimida tashkil qilingan boʻlib, Boshlangʻich taʼlim kabineti mudiri A.Abrayev, E.Temirov, Oʻzbek tili va adabiyoti kabineti mudiri U.Kenjayev, Rus tili va adabiyoti kabineti mudiri G.Bramatkina, Chet tili kabineti mudiri X.Boltayev, Tarix-jamiyatshunoslik va sovet davlati huquqi asoslari fani kabineti mudiri T.Suvanov, Matematika kabineti mudiri N.Joʻrayev, Fizika va astronomiya kabineti mudiri R.Nuriddinov, Geografiya kabineti mudiri U.Haydarov, Ximiya kabineti mudiri Z.Ismoilov, Biologiya kabineti mudiri B.Normurodov, Muzika kabineti mudiri B.Mahmudov, Tasviriy sanʼat va chizmachilik kabineti mudiri J.Jilovov, Tarbiyaviy ishlar va maktabdan tashqari muassasalar kabineti mudiri S.Nasimov, Maktab-internat, Bolalar uylari, kuni uzaytirilgan gruppalar kabineti mudiri J.Abdiyev, H.Haydarov, Oʻquv texnika vositalari kabineti mudiri X.Ahmedov, Kechki taʼlim kabineti mudiri A.Qudratov, A.Jabborovlar faoliyat koʻrsatgan.

Oʻquv dargohining professor-oʻqituvchilari tez-tez rayonlarga xizmat safariga chiqib turgan. Shu xizmat safarlari paytida kursga kelib ketgan oʻqituvchilarni kursdan keyin faoliyati davomida qanday oʻzgarishlar boʻlgani, kursdan keyin berilgan referatni qanday ishlayotgani haqida tekshirilib, yanada kerakli boʻlgan maslahatlar berilgan. Maktab oʻqituvchilari bilan savol-javoblar qilinib, oʻz ustida qanday bilim olishlari tekshirilib borilgan. Qoʻshimcha adabiyotlarni oʻqishi boʻyicha koʻrsatmalar berilgan.

Shu bilan birgalikda, oʻquv maskanida kabinet xodimlari tomonidan viloyat maorifchilariga turli koʻrsatmalar, ishlanmalar tayyorlanib, “metodik xatlar” rayon (shahar) xalq maorifi boʻlimlari orqali yetkazilib turilgan.

Kurs tinglovchilarining siyosiy, ilmiy-nazariy, psixologik-pedagogik tayyorgarligini yanada yaxshilash maqsadida kurslarga maʼruzachilar sifatida Qarshi davlat pedagogika institutining olimlari taklif etilgan. Jumladan, biologiya fanlari doktori Sh.Qurbonov, tibbiyot fanlari doktori B.Aminov, dotsentlar X.Roʻziyev, A.Xolmurodov, A.Esirgaliyev, G.Mazitova, S.Zaxarov, S.Toshev kabilar[5]. Malaka oshirishga kelgan maktab kutubxona mudirlari kursiga N.Gaydar nomli viloyat bolalar kutubxonasining bir guruh mutaxassislari hamda Qarshi madaniyat texnikumining tajribali kutubxonashunos oʻqituvchilari P.Xurramov, N.Islomovalar mashgʻulotlarni koʻrgazmali qurollar asosida qiziqarli olib borgan. Biroq, ayrim yoʻnalishlarda mutaxassislar yetishmagan, masalan, fransuz tilidan boʻladigan kurs uchun Toshkentdagi Markaziy malaka oshirish institutidan va Toshkent davlat chet tillar institutidan lektorlar chaqirishga toʻgʻri kelgan[6].

Oʻquv dargohi rayon, shahar xalq maorifi boʻlimlari, ularning metodika kabinetlari bilan hamkorlikda malaka oshirish rejalarini bajarishga harakat qilib kelgan. 1984-yilda viloyat oʻqituvchilar malakasini oshirish institutida rejalarni Qarshi shahri (reja 191, bajarildi 201 taga) va Kitob shahri (reja 52, bajarildi 63 taga) muvaffaqiyatli bajarganlar. Rejani Yakkabogʻ rayoni 98 taga, Chiroqchi rayoni 56 taga, Kitob rayoni 53 taga, Shahrisabz rayoni 43 taga, Koʻkdala rayoni 36 taga, Dehqonobod rayoni 35 taga, Muborak rayoni 31 taga bajarmagan[7]. Rejalarning bajarilmay qolishida rayon, shahar xalq maorifi boʻlimlarining oʻz ishiga masʼuliyat bilan yondashmaganligi, metodika kabinetlarining perspektiv rejalarining mavjud emasligi, hisobot ishlarining durust boʻlmaganligi sabab boʻlgan.

Ayrim hollarda, kurslarga kelgan oʻqituvchilar koʻplab dars qoldirishgan, ularga “sertifikat” oʻrniga “maʼlumotnoma” berilgan. Kursga kelib roʻyxatdan oʻtib, ketib qolish holatlari kuzatilgan.

Oʻquv dargohi Qashqadaryo viloyat xalq maorifi boʻlimi, Qarshi davlat pedagogika instituti, Qashqadaryo viloyat hunar-texnika bilim yurtlari boshqarmasi hamkorligida viloyat oʻqituvchilarining “Pedagogik oʻqishlari”ni ham tashkil qilgan. Bunday tadbirlarda taʼlimning muhim mavzularida maʼruzalar qilingan, pedagoglar oʻzaro tajriba almashishgan, darslar sifatini oshirish maqsadida koʻrsatmalar berilgan.

Oʻquv dargohi tomonidan oʻqituvchilarning malaka oshirish kursidan oʻtgandan keyingi ish samaradorligi kuzatib borilgan va namunali deb topilgan hamda ilgʻor, tajribali pedagoglarning ish faoliyati ommalashtirilgan.

Har bir kursda turli mavzularda kechalar, keksa pedagoglar, “Katta oʻqituvchi”, “Metodist oʻqituvchi”, “Ijodkor oʻqituvchi”lar bilan hamda Ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari bilan uchrashuvlar tashkil etilgan. Masalan, institutda buyuk gʻalabaning 40 yilligi oldidan Jahon urushi faxriylari va Sovet Ittifoqi Qahramoni P.M.Shibayen bilan uchrashuv oʻtkazilgan[8].

Istiqlol yillarida Oʻquv dargohining faoliyatida ulkan yutuqlar qoʻlga kiritildi, shu bilan birga, uning maqomida oʻzgarishlar boʻldi.

Oʻquv dargohiga 1993-yilda Qashqadaryo viloyat xalq taʼlimi xodimlari malakasini oshirish instituti maqomi berilgan. 2005-yilda institut Qashqadaryo viloyat xalq taʼlimi pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, 2015-yildan Qashqadaryo viloyat xalq taʼlimi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti deb nomlangan.

2017-yildan Qarshi Davlat universiteti huzuridagi xalq taʼlimi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi, 2018-yildan Qashqadaryo viloyati xalq taʼlimi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi, 2022-yildan Qashqadaryo viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga oʻrgatish milliy markazi maqomida boʻlgan. 2024-yildan oʻquv dargohi Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat markazi maqomida yuritilmoqda.

Istiqlol yillarida oʻquv dargohida bir necha rahbarlar, oʻqituvchi-pedagoglar, xodimlar samarali faoliyat olib borishdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida Said Sagdullayev oʻquv dargohiga rahbarlik qilgan, 1997-2009-yillarda Suyar Toshev, 2009-2015-yillarda Ismatullo Xudoyberdiyev, 2015-2018-yillarda Gulnoza Ernazarova, 2018-2024-yillarda Amin Mallayevlar institut rektori vazifasida samarali faoliyat olib borishgan.

2024-yilning sentyabridan Nozima Oripova bu dargohga rahbarlik qilmoqda. Direktorning akademik faoliyat boʻyicha oʻrinbosari lavozimida Xamrayev Zuryod Bunyodovich ishlab kelmoqda.

1991-yildan boshlab oʻquv dargohiga viloyatning chekka, uzoq tumanlaridan kelgan oʻqituvchilar 250 oʻrinli moslashtirilgan yotoqxona binosidan foydalanib kelgan. 2018-yilda esa 240 oʻrinli qoʻshimcha oʻquv binosi foydalanishga topshirilgan. Oʻquv dargohi Qarshi shahri, Olimlar koʻchasi 2-uyda faoliyatini olib borgan. Bu binoda ilm dargohining 30 ta oʻquv auditoriyasi, ximiya, biologiya, fizika fanidan oʻquv laboratoriyalari, 2 ta lingofon va 6 ta kompyuter xonasi, 10 ming nusxadan ziyod kitob fondiga ega boʻlgan, internet tizimiga toʻliq ulangan Axborot resurs markazi, 250 oʻrinli yotoqxona, 50 oʻrinli oshxona va sport zali ishlab turgan.

Oʻquv dargohi 2025-yil sentyabrdan Shahrisabz tumani Loliston mahalla fuqarolar yigʻini, Paxtakor koʻchasi 2-uy (avvalgi Shahrisabz pedagogika kolleji binosi)da faoliyatini davom ettirmoqda. Bu dargoh 4 etajli oʻquv binosiga, 400 oʻrinli yotoqxona hamda sport zallariga ega.

Mustaqillikning dastlabki yillarida muassasaning tarkibiy tuzilishida oʻzgarishlar boʻlgan. Bu Qashqadaryo viloyat hokimligining 1997-yil 11-martdagi "Viloyat xalq taʼlimi xodimlarini malakasini oshirish instituti tarkibiy tuzilishini takomillashtirish va moddiy oʻquv bazasini mustahkamlash toʻgʻrisida"gi Qarori asosida amalga oshirilgan. Unga koʻra:

1. Ximiya-biologiya boʻlimi tugatilib, unga geografiya fani qoʻshilgan holda tabiiy fanlar kafedrasi tuzilgan.

2. Oʻzbek tili va adabiyoti, chet tillari boʻlimlari tugatilib, uning oʻrnida jahon tillari, oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi tashkil etilgan.

3. Matematika, informatika va fizika boʻlimlari oʻrnida Matematika, informatika va fizika kafedrasi tuzilgan.

4. Boshlangʻich taʼlim va maktabgacha tarbiya boʻlimlari oʻrnida Boshlangʻich taʼlim va maktabgacha tarbiya kafedrasi tashkil etilgan.

5. Texnika vositalari, jismoniy tarbiya, chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash, tarbiyaviy ishlar va kechki taʼlim, mehnat taʼlimi, xalq taʼlimini boshqarish, nafosat, diagnostika, nashriyot boʻlimlari avvalgi holatida qolgan.

Shu bilan birgalikda, kafedra aʼzolari tanlov yoʻli bilan ishga qabul qilina borgan[9].

Viloyat xalq taʼlimi xodimlari malakasini oshirish institutining oʻqituvchi xodimlari tuman, shahar xalq taʼlimi boʻlimlariga kurator (rahbar) etib tayinlangan va bundan koʻzlangan asosiy maqsad ularga metodik mahsulotlarni yetkazish hamda zarur maʼlumotlarni toʻplash, tahlil qilishdan iborat boʻlgan.

1997-yilning aprelidan oʻquv dargohida navbatchilik yoʻlga qoʻyilgan. Navbatchi xodim navbatchilik kunida institutdagi tartib-intizom, amalga oshirilgan ishlarni, yuz bergan voqealarni navbatchilik daftariga toʻliq qayd qilinishi uchun masʼul hisoblangan. Har bir xodim belgilangan kunda navbatchilik qilishi majburiy boʻlgan. 1999-yilning martidan institut yotoqxonasida ham navbatchilik tashkil qilingan. Yotoqxonada ichki tartib qoidalarini bajarilishini taʼminlash maqsadida kech soat 18-00 dan 24-00 gacha navbatchilik amalga oshirilgan va alohida navbatchilik daftari yuritilgan. Oʻquv dargohining 2001-yil 27-fevraldagi buyrugʻiga koʻra, shu yilning 1 mart sanasidan arxiv boʻlimi tashkil etilgan. Arxiv boʻlimi ishini yuritish devonxona mudiri D.Egamovaga yuklatilgan.

Oʻquv dargohida masofadan oʻqitishni hududiy muvofiqlashtirish markazi 2004-yilda tashkil etilgan. Markazga 2004-2011-yillarda Karayev Abdishukur Turdiyevich, 2011-2012-yillarda Hudoyqulov Karim Mahmudovich, 2013-2018-yillarda Suyarov Zoir Shaymardonovich rahbarlik qilgan[10]. Biroq, masofadan oʻqitishda har doim ham rejalar bajarilmagan. Masalan, 2013-yilda masofadan malaka oshirish rejasi 216 nafar boʻlib, 223 nafar tinglovchi masofadan malaka oshirib, 103% ga bajarilgan. 2014-yilda esa 408 nafar tinglovchi masofadan malaka oshirish rejalashtirilgan boʻlib, rejani 396 nafar 97% ga bajargan. 2015-yilda esa 425 nafar tinglovchi masofadan malaka oshirish rejalshtirilgan boʻlib, rejani 406 nafar 95% ga bajargan.

2020-yilda butun dunyoda Kovid-19 pandemiyasi boʻlib, bu barcha sohalarga oʻz taʼsirini koʻrsatgan edi. Malaka oshirish institutida tinglovchilarni uylariga javob berilishi oʻsha yilning 16 mart sanasidan boshlangan boʻlib, bir muddatdan keyin institut professor — oʻqituvchilari fan mavzulari asosida video-darslar tayyorlashgan. Birozdan soʻng, tinglovchilar uchun onlayn darslar tashkil etilgan. Bunday onlayn darslar yoz va kuz oylarida ham amalga oshirilgan.

2020-yilning avgust oyidagi kurslar ikki smenada onlayn shaklda amalga oshirilgan, onlayn malaka oshirish kurslari va ularga guruh masʼullari quyidagicha boʻlgan:

**1-smena**

| T/r | Guruhlar | Guruh masʼuli |
|---|---|---|
| 1 | OʻTIBDOʻ | Yavqochdiyeva Dilafruz |
| 2 | MMIBDOʻ 1 | Soatov Asadullo |
| 3 | Ona tili va adabiyoti oʻqituvchilari 1 | Toshtemirov Bahtiyor |
| 4 | Ona tili va adabiyoti oʻqituvchilari 2 | Karimova Gulshan |
| 5 | Ona tili va adabiyoti oʻqituvchilari 3 | Norov Otajon |
| 6 | Rus tili va adabiyoti oʻqituvchilari 1 | Eshmurodov Shuxrat |
| 7 | Ingliz tili oʻqituvchilari 1 | Markayev Yashin |
| 8 | Boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilari 1 | Bahriddinova Dilobar |
| 9 | Boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilari 2 | Beknazarova Xadicha |
| 10 | Boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilari 3 | Yoʻldosheva Ziyoda |
| 11 | Boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilari 4 | Abduxoliqova Marhabo |
| 12 | Boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilari 5 | Hamrayev Shuxrat |
| 13 | Boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilari 6 | Azizova Dilnoz |
| 14 | Boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilari 7 | Qushoqova Umida |
| 15 | Boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilari 8 | Choriyeva Zuhra |
| 16 | Ximiya oʻqituvchilari 1 | Nekboyev Xurshid |
| 17 | Biologiya oʻqituvchilari 1 | Karimova Habiba |
| 18 | Fizika oʻqituvchilari | Qorayeva Dilfuza |
| 19 | Matematika oʻqituvchilari 1 | Xushmatova Nilufar |
| 20 | Matematika oʻqituvchilari 2 | Shoimov Anvar |
| 21 | Informatika oʻqituvchilari 1 | Mallayev Hamro |
| 22 | Tarix oʻqituvchilari 1 | Avliyaqulova Dilobar |
| 23 | Tarix oʻqituvchilari 2 | Ochilov Ulugʻbek |
| 24 | Mehnat taʼlimi oʻqituvchilari | Ibragimov Olim |
| 25 | MTM tarbiyachilari 1 | Irisova Sayyora |

**2-smena**

| | | |
|---|---|---|
| 1 | MMIBDOʻ 2 | Berdiyeva Lobar |
| 2 | Ona tili va adabiyoti oʻqituvchilari 4 | Qodirov Jahongir |
| 3 | Ona tili va adabiyoti oʻqituvchilari 5 | Oʻroqova Zilola |
| 4 | Ona tili va adabiyoti oʻqituvchilari 6 | Tillayeva Sohiba |
| 5 | Rus tili va adabiyoti oʻqituvchilari 2 | Annayeva Lola |
| 6 | Ingliz tili oʻqituvchilari 2 | Begimova Manzura |
| 7 | Ingliz tili oʻqituvchilari 3 | Oqboyeva Zulfiya |
| 8 | Boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilari 9 | Zaripova Muslima |
| 9 | Boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilari 10 | Rasulova Sanobar |
| 10 | Boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilari 11 | Toʻqliyeva Matluba |
| 11 | Boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilari 12 | Toʻrayeva Dilrabo |
| 12 | Boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilari 13 | Qosimova Gavhar |
| 13 | Boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilari 14 | Shahmurodova Diljahon |
| 14 | Boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilari 15 | Safarova Mohidil |
| 15 | Boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilari 16 | Karimova Umida |
| 16 | Ximiya oʻqituvchilari 2 | Jabborov Farxod |
| 17 | Biologiya oʻqituvchilari 2 | Mamatov Bekzod |
| 18 | Geografiya oʻqituvchilari | Qurbonova Shahnoza |
| 19 | Matematika oʻqituvchilari 3 | Rasulova Karomat |
| 20 | Matematika oʻqituvchilari 4 | Eshmurodov Sherdil |
| 21 | Informatika oʻqituvchilari 2 | Eshdavlatov Farrux |
| 22 | Tarix oʻqituvchilari 3 | Rajabov Ruslan |
| 23 | MTM tarbiyachilari 2 | Yuldosheva Yulduz |

Birozdan soʻng, taʼlimning anʼanaviy shakliga oʻtilgan. Oʻquv dargohiga kelib, malaka oshiradigan tinglovchilar soni ortib borgan.

Oʻquv dargohida 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida jami 24980 nafar tinglovchilarning malakasini oshirish rejalashtirilgan boʻlib, rejaning bajarilishi 29346 nafar (anʼanaviy 25087 nafar, masofaviy 3201 nafar, MTT tarbiyachilari 1058 nafar)ga, bu esa foiz hisobida 117,5%ni tashkil etgan. Shundan malaka oshirish kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan 25005 nafar tinglovchilar belgilangan tartibdagi davlat namunasidagi sertifikatga tavsiya etilgan. 6 soat va undan ortiq dars mashgʻulotlarida ishtirok etmaganligi uchun 4341 nafar (17,4%) tinglovchi tinglovchilar safidan chiqarilgan va tuman (shahar) Maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimlariga maʼlumot yuborilgan.

Ayrim kurslarga mashgʻulotlar oʻtish uchun mutaxassislar yetishmagan. Shu sababli Qarshi davlat universiteti, Qarshi pedagogika bilim yurti va Qarshi shahridagi maktablarning oʻqituvchilari mashgʻulotlarga jalb etilgan. Oʻquv mashgʻulotlari davomida faol boʻlgan tinglovchilar eʼtirof etilgan.

Oʻquv-maʼnaviy va jamoat ishlarida faol ishtirok etgan, yuqori bilim salohiyatiga ega boʻlgan kurs tinglovchilari faoliyat koʻrsatayotgan maktab maʼmuriyatiga tashakkurnomalar yuborilgan. Masalan, 2018-yil mart oyida malaka oshirgan tarix guruhi tinglovchilaridan K.Shernazarova, Q.Jabborov, O.Xusanov, G.Usmonova, O.Yakubovlarga, shu yilning oktyabr oyidagi tarix 1 guruhidan E.Raximov, Ch.Lutfillayeva, B.Shukurova, Oʻ.Doʻstmurodov, A.Chorshanbiyev, M.Tursunovalarga ana shunday tashakkurnomalar berilgan[11].

Faol, yuqori bilim salohiyatiga ega, ilgʻor, tajribali oʻqituvchilarning ish faoliyati institut pedagoglari tomonidan ommalashtirilib borilgan. Masalan, “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar” kafedrasi

oʻqituvchisi K. Polvonov 2019-yil may oyida Koson tuman 3-maktab tarix fani oʻqituvchisi Mustafoyeva Muniraning “Tarix fanini oʻqitishda interfaol usullardan foydalanish” mavzusidagi ish tajribasini, kafedra oʻqituvchisi D. Avliyoqulova shu yilning oktyabr oyida Qarshi shahar 29-maktab davlat va huquq asoslari fani oʻqituvchisi Majidova Dilfuzaning “Davlat va huquq haqidagi zamon konsepsiyalari” mavzusidagi ish tajribasini ommalashtirgan[12].

Muassasada maʼnaviy-maʼrifiy ishlar doimiy oʻtkazilib kelingan. Professor-oʻqituvchilar tomonidan kurs tinglovchilari va yotoqxonada istiqomat qiluvchi tinglovchilar bilan turli tadbirlar oʻtkazilgan. Asosan, tadbirlar tinglovchilarning darsdan boʻsh vaqtlarida amalga oshirilgan.

Oʻquv dargohining pedagoglari metodik mahsulotlarni ishlab chiqishga asosiy eʼtiborni qaratishgan. Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqot ishlarini ham olib borishgan. Soʻnggi yillarda oʻqituvchi-pedagoglarning falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalari himoya qilinib, ilmiy darajaga ega boʻlgan xodimlar miqdori ortib bormoqda.

**Xulosa.** Qashqadaryodagi yetakchi oʻquv dargohlaridan biri — Qashqadaryo viloyat pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi 1952-yilda Qarshi shahrida tashkil topgan. Oʻquv dargohi dastlab shahardagi moslashtirilgan binolarda, 1991-yildan yangi binoda faoliyat koʻrsata boshlagan. Dargoh viloyatdagi oʻqituvchilar, murabbiylar, tarbiyachilarning malakasini oshirib, bilim saviyasini ortishiga munosib hissasini qoʻshib kelgan. Muassasa Oʻzbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tekshirish instituti, Qashqadaryo viloyat xalq maorifi boʻlimi, Qarshi davlat pedagogika instituti kabi taʼlim muassasalari bilan hamkorlikda ish olib borgan.

Oʻquv dargohining ayrim kurs yoʻnalishlariga maʼruzachilar, oʻqituvchilar yetishmasligidan Qarshi davlat pedagogika instituti va Qarshi madaniyat texnikumidan mutaxassislar kelib dars berishgan. Kurslarga kelgan baʼzi tinglovchilar koʻplab dars qoldirishgan, ularga “sertifikat” oʻrniga “maʼlumotnoma” berilgan.

Mustaqillik yillarida barcha jabhalarda boʻlgani singari oʻquv dargohida ham koʻplab oʻzgarishlar va islohotlar amalga oshirildi. Bu davrda oʻquv dargohining maqomida oʻzgarishlar boʻldi. Oʻquv dargohida dastlab kabinet tizimi, soʻngra kafedralar tuzilib, faoliyatini davom ettirgan. Samaradorlikni oshirish maqsadida viloyat oʻqituvchi-pedagoglari malaka toifalariga ajratilib, oʻqitilgan. Ayrim kurslarga mashgʻulotlar oʻtish uchun mutaxassislar yetishmagan. Shu sababli Qarshi davlat universiteti, Qarshi pedagogika bilim yurti va Qarshi shahridagi maktablarning oʻqituvchilari mashgʻulotlarga jalb etilgan. Oʻquv mashgʻulotlari davomida faol boʻlgan tinglovchilar eʼtirof etilgan.

Professor-oʻqituvchilar metodik mahsulotlarni ishlab chiqishga asosiy eʼtiborni qaratishgan. Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqot ishlarini ham olib borishgan. Bundan tashqari, kurs tinglovchilari va yotoqxonada istiqomat qiluvchi tinglovchilar bilan turli maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar oʻtkazilib kelingan.

Taʼlim tarixi tadqiqotchilarning diqqat markazidagi mavzulari sirasiga kiradi. Keltirilgan tarixiy maʼlumotlar Qashqadaryo vohasi taʼlim tizimi tarixiga qiziquvchilarning bilimlarini yanada oshishiga xizmat qiladi.

## Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Har qanday mamlakat taraqqiyoti sogʻlom va bilimli avlodga bogʻliq” // Xalq soʻzi, 2025 yil 16 may, № 99 (8994).

2. Qashqadaryo viloyat pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi joriy arxivi.
3. Mahmudov B. Qashqadaryo xalq ta'limining taraqqiyot yo'li. –Qarshi: Nasaf, 1999. –B. 38.
4. Dala yozuvlari. 2025 yil, 25 fevral. Axborotchi Jilovov Jomurod. 1946 yil 15 fevralda Koson tumanida tug'ilgan. Qarshi shahri.
5. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, S-545-fond, 1-ro'yxat, 41-ish, 10-varaq.
6. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, S-545-fond, 1-ro'yxat, 2-ish, 3-varaq.
7. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, S-545-fond, 1-ro'yxat, 35-ish, 2-varaq.
8. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, S-545-fond, 1-ro'yxat, 32-ish, 10-varaq.
9. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, M-635-fond, 1-ro'yxat, 14-ish, 3-varaq.
10. Qashqadaryo viloyat pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi joriy arxivi.
11. O'quv dargohining "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar" kafedrasida 2014-2020 yillarda o'qituvchi lavozimida faoliyat ko'rsatgan K.Polvonovning shaxsiy arxiv hujjatlaridan.
12. O'quv dargohining "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar" kafedrasida 2012-2022 yillarda kafedra mudiri lavozimida faoliyat olib borgan P.Norbo'tayevning shaxsiy arxiv hujjatlaridan.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 4 (6) – 2026*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).